

O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Ergashev R. X.

QarDU professori, i.f.d.

Islomova D. S.

QarDU magistranti

ARTICLE INFO.

Kalit so‘zlar:

Erkin turistik hudud, xizmatlar bozori, turizmدا innovatsiya, turmahsulot, turagent, turizm industriyasi.

Annotatsiya

Maqolada turizmدا xizmatlar bozorining turistik mahsulotni yaratuvchi va uning xaridorlari iqtisodiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi hudud sifatida ta’riflash va erkin turistik hududlarda turizm xizmatlar bozorini tashkil etish va rivojlantirish masalalari yoritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Kirish. O‘zbekistonda turizmning salohiyatli va istiqbolli turlaridan biri ziyorat turizmi hisoblanadi. Uning o‘ziga xos xususiyati komil insonni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan bog‘liq. Bugungi kunda jahondagi turistik obyektlarning 90 foizidan dan ortig‘i bevosita yoki bilvosita sig‘inish yoki din bilan aloqador[2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Turizmni rivojlantirish bo‘yicha 2021 yilda ham izchil islohotlarni davom ettiramiz. Ayniqsa, ziyorat turizmi va ichki turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi”[1], deb ta’kidladilar.

Ushbu strategik vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanida joylashgan “Imom Abul Mu‘yin an-Nasafiy”, G‘uzor tumanida joylashgan “Mirijanda ota”, Qamashi tumanida joylashgan “Langar ota”, Qarshi shahrida “Abu-Ubayda Ibn Al-Jarroh”, Shaxrisabz tumanida joylashgan “Hazrati Sulton ota”, Qamashi tumanida “Bibi Mushkul ona” va boshqa ziyoratgohlarni o‘rganish jarayonida ziyorat turizmni rivojlantirish viloyat va mamlakat uchun juda katta sarmoyalar olib kelishi mumkin hamda ziyorat turizmni rivojlantirishning milliy iqtisodiyotga ta’siri takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 fevraldagi 100-sonli «Ichki va ziyorat turizmni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 8 martdagi 198 sonli qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ziyorat turizm sohasi, iqtisodiyotning muhim tarmog‘i hisoblanishi bilan birga davlatlar o‘rtasida madaniy-ma’rifiy

munosabatlarni mustahkamlaydi, xalqlar o'rtasida esa do'stlik rishtalarini bog'laydi. Eng muhimi, bir mamlakat xalqi ikkinchi bir mamlakat xalqining yashash tarzi, tarixi, urf-odatlarini bilan yaqindan tanishish imkoniyati tug'iladi. Bu esa insonlarni bir-biriga yaqinlashtirishda, dunyoda tinchlik va totuvlikni o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ziyorat turizm ning dunyo ijtimoiy hayotidagi ahamiyati ham shunda, deb baholash mumkin.

Ziyorat turizm sohasining iqtisodiyotimiz va ijtimoiy hayotimiz uchun o'ta muhimligi tufayli Prezidentimiz va Hukumatimizning hamisha diqqat-e'tiborida bo'lib kelganligi tufaylimillatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlashga ko'maklashish hamda xalqaro ziyorat turizm bozoriga uzviy qo'shilish, O'zbekistonning madaniy-tarixiy va ma'naviy merosini jahon hamjamiyatida targ'ib qilish, shuningdek sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Ziyorat turizmni rivojlantirish yuzasidan ko'pgina iqtisodchi olimlar ya'ni, MDH davlatlari olimlaridan M.A.Morozov, S.S.Nikolayev, T.V.Lvova [3,4,5] va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

O'zbekiston iqtisodchi olimlaridan M.Q.Pardayev, N.Tuxliyev, N.B.Navruz-Zoda, B.X.To'rayev, R.X.Ergashevlarining [6,7,8,9,10,11,12,13] ilmiy tadqiqotlari turistik hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli masalalariga bag'ishlangan.

Ammo, yuqorida tilga olingan olimlar izlanishlarida ziyorat turizm sohasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar keng yoritilganligiga qaramasdan, ziyorat turizmni alohida tarmoq sifatida yaxlit holda rivojlantirish, uning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini aniqlash bilan bog'liq masalalar yetarlicha o'rganilmagan. Ziyorat turizmning hududlar rivojlanishiga ta'siri bilan bog'liq masalalar ham iqtisodiy adabiyotlarda kam yoritilgan. Bunday holat mamlakatimizda ziyorat turizm tarmog'ini rivojlantirish bilan bog'liq muammolar hamda ushbu tarmoqning milliy iqtisodiyotga ta'sirini kuchaytirish bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotlarda turizm sohasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar keng yoritilganligiga qaramasdan, milliy iqtisodiyotga keng ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri ziyorat turizm samarali rivojlantirish bilan bog'liq masalalar yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ziyorat turizm sohasining tahlilida induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, turli xalqaro va nodavlat tashkilotlar uslubiyotini qiyosiy tahlil etish, rasmlar usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ziyorat turizmning juda ko'plab ta'riflarini nazariy jihatdan tahlil qilib hali ushbu kategorianing ham ta'rifi tarmoq sifatida to'liq bir xil to'xtamga kelingan emas, degan xulosaga keldik.

Bizning fikrimizcha, ziyorat turizmning iqtisodiy kategoriya, tarmoq, xo'jalik yurituvchi subyekt kabi sifatlarini inobatga olgan holda ta'riflarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Chunki har qanday iqtisodiy jarayonga yoki kategoriyaga har tomonlama atroflicha qaralmasa, uning mazmunini nazariy jihatdan to'liq ochib berish qiyin bo'ladi.

Ziyorat turizmni o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uni rivojlantirish istiqbollarni belgilash maqsadida turizm obyektini sifatidagi "ziyosat" atamasining mohiyati va tabiatini anglab olish lozim. Adabiyotlarda bu atamaning xususiyatlari hali-hanuzgacha yoritilmagan. Maqolada biz mazkur atamaga ziyorat turizmni o'lkamizda komil insonni shakllantirishga qo'shadigan hissasi va diversifikatsiyalash imkoniyatlarini qo'llash nuqtai nazaridan qarab, ta'rif va tavsif beramiz.

"Ziyorat" (arabcha زيارة ziyara) so'zidan olingan bo'lib "tomosha qilish", "ko'rishga borish (kelish)" ma'nolarni bildiradi. Musulmonlarda "ziyosat"- bu payg'ambarlar qabri, diniy muqaddas joylarni ziyorat qilishdir [14].

Inson qalbini tozalab, kundalik hayotda unga kerak bo'lgan, asl holatini ifodalaydigan: suvday sof, billurdek shaffof, oyinaday silliq ko'ngilni yaratadi. Ziyorat turizm turlarini qo'yidagicha tavsiflashimiz mumkin.

Ichki ziyorat bu insonning o'z qalbiga ruhiy va ma'naviy safaridir. U Qalbgaga safar qilish uchun insonga ma'naviy ozuqa kerak bo'lib turadi. Ichki ziyorat manbalari sifatida Qur'oni karim; Sharif hadislar; buyuk diniy va dunyoviy allomalarning tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lgan adabiy va ilmiy asarlari; ma'naviy yuksak insonlarning pandu nasihatlar; ota-onalar; ustoz o'g'itlari, o'qituvchi va murabbiylar xizmat qiladi.

Ichki ziyoratning o'ziga xos xususiyati safarni noan'anaviy yo'l bilan bosib o'tishdadir. Insonning o'z ma'naviy barkamollikka erishish yo'lida xilvatda kitoblarni o'qib turish, ma'rifiy-tarbiyaviy tadbirlarda qatnashib saboq olish, ilm o'rganish, bilim olish kabi sa'y-harakatlarni, bizning fikrimizcha, ichki safar vositalari qatoriga kiritish mumkin. Shuningdek, ichki ziyorat sajda va duo o'qishda ham o'z ifodasini topadiki, unga ko'ra ziyoratchi ibodat qiladi. U yoki o'z uyidan turib, yoki uyiga yaqin joylashgan masjidga borib, yoki qo'shni-qarindoshlar tomonidan uyushtiriladigan xatmi Qur'on, mavlud, ashurlik, bibi seshanbe va haj oshi, sunnat to'yi kabi diniy marosimlarga qatnashib, ibodat amallarini ijro qiladi. Ichki ziyorat insonning ruhiy kamolotga erishishiga ko'maklashadi.

Tashqi ziyorat esa diniy rasm-rusumlarni bajarish bilan birga amalga oshiradigan insonning turli muqaddas makonlar bo'yicha sayru sayohatidir. U kishining doimiy yashab turgan manzildan uzoqlashgan holda sajda qilishga asoslangan diniy va/yoki dunyoviy muqaddas joylarga ziyorat qilishini nazarda tutadi. Ziyoratchi muqaddas joy va narsalar oldiga borib sajda qilgan, ularni e'zozlagan holda ziyoratni amalga oshiradi. Ziyoratning tashqi shakli ziyorat turizmining asosi sifatida xizmat qiladi. Chunki, ziyorat sayohati jarayonida ziyoratchilar muqaddas joylarni ziyorat qilish maqsadida safarga chiqadilar. Ziyoratning bu shakli odamlarni ma'naviy va jismoniy kamolotga erishishiga ko'maklashadi. Chunki, insonlar doimiy yashash manzillaridan uzoqlashgan sari o'pkalardagi havo almashtiradilar va buning natijasida sog'liqlari ancha yaxshilanadi. Ular turli-tuman maskanlarga borish-kelish vaqtida xilma-xil odamlar bilan qiziqarli suhbatlarda bo'ladilar, yangi muqaddas joy va narsalar bilan tanishadilar va ulardan ma'naviy ozuqa oladilar, har xil hodisalarga guvoh bo'ladilarki, bularning barisi ziyoratchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va barkamollikka erishishiga ko'maklashadi.

Diniy ziyorat o'z navbatida islomiy, buddaviylik, xristianlik va boshqa diniy e'tiqodlarga bo'linadi. Agar diniy ziyorat diniy muqaddas narsa va joylarga ibodat qilishni bildirsa, dunyoviy ziyorat tabiiy va hayotiy narsalar (zardushtiylik ta'limotlarida olov, suv, yer, havo muqaddas hisoblangan) hamda muqaddas joylarga sajda qilish va ularni qadrlashda o'z ifodasini topadi.

Dunyoviy ziyorat komil inson tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sayru sayohat turidir. "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" shiori ostida yoshlar o'rtasida tashkil etiladigan sayohatlar; "Xotira va qadrlash" bayramida "Motamsaro ona" haykaliga tashrif buyurib gulchambar qo'yish va ta'zim qilish; Toshkentdagi qatag'on qurbonlariga bag'ishlangan "Shahidlar xotirasi majmuasi"ni ziyorat qilish; Samarqandga tashrif buyurib, Amir Temir bobomizning qabrlarini ziyorat qilish; Yurtboshimiz rahnamoligida Buxoroyi Sharifda yuzdan ortiq gektar maydonda saf rostlagan va 2010 yil 30 avgustda rasmiy ochilgan "Ko'hna va boqiy Buxoro madaniy markazi" ga respublikamiz yoshlarining tashrifi, bizning fikrimizcha, O'zbekistondagi dunyoviy ziyorat maskanlarning yorqin namunalariga kiradi.

Shu yerda "safar", "sayohat" va "ziyosat" atamalarining o'zaro mutanosibligini aniqlab olish o'rinli bo'ladi. "Safar" - sayohat va ziyorat atamalariga nisbatan ancha keng atama hisoblanadi. U xizmat ishlari bo'yicha safar, sayohat safari va insonni ichki dunyosidagi safar turlariga bo'linadi. Xizmat ishlari bo'yicha safar sayohat va ziyorat faoliyat turi hisoblanmasdan, shunchaki inson ish faoliyatining tarkibiy qismidir. Insonni ichki dunyosidagi safari ichki ziyoratning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Sayohat safari esa safarning uchdan bir qismidir.

Sayohat ziyoratga nisbatan kengroq atamadir. Ziyorat sayohatning o'nlab turidan faqat bir turi hisoblanadi. Ichki ziyorat sayohatga taalluqli bo'lmasdan, faqat tashqi ziyorat uning tarkibiy qismiga kiradi. Ziyoratni sayohatdan quyidagi tafovutlarini qayd qilish mumkin:

- agar sayohatga barcha sayru tomosha turlari kirsa, ziyoratga faqat diniy rasm-rusumlarni bajarish bilan birga amalga oshiradigan safar turi kiradi;
- sayohatning obyektini sifatida barcha obidalar hisoblansa, ziyoratning obyektiga faqat muqaddaslikka xos bo'lgan narsa va/yoki joylar kiradi;
- sayohatning subyektini sifatida barcha kishilar taalluqli bo'lsa, ziyoratning subyektini diniy va dunyoviy e'tiqodli kishilar tashkil qiladi;
- sayohat ko'ngilxushlik, qizg'in o'yinlar, hordiq chiqarish kabi sa'y-harakatlarni o'z ichiga olsa, ziyorat bunday hatti-harakatlardan xolis bo'lishi lozim.

Ushbu strategik vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanida joylashgan "Imom Abul Mu'yn an-Nasafiy", G'uzor tumanida joylashgan "Mirijanda ota", Qamashi tumanida joylashgan "Langar ota", Qarshi shahrida "Abu-Ubayda Ibn Al-Jarroh", Shaxrisabz tumanida joylashgan "Hazrati Sulton ota", Qamashi tumanida "Bibi Mushkul ona" va boshqa ziyoratgohlarni o'rganish jarayonida ziyorat turizmini rivojlantirish viloyat va mamlakat uchun juda katta sarmoyalar olib kelishi mumkin hamda ziyorat turizmini rivojlantirish Qashqadaryoda mahalliy va xorijlik sayyohlarni o'ziga jalb qiladigan maskanlar soni talaygina. Biroq ko'pgina mashhur tarixiy yodgorliklarimiz bir-biridan ancha uzoqda joylashgan. Misol uchun, Oqsaroy va boshqa ko'hna yodgorliklar bilan tanishgan sayyoh, deylik, Sulton Mirhaydar ziyoratgohini ko'rish uchun yuzlab kilometr yo'l bosib Kasbi tumaniga, Abul Mo'iyin an-Nasafiy majmuasida bo'lish uchun Qarshi tumaniga borishi lozim bo'ladi. Albatta, uzoq yo'l bosib kelgan har qanday odam bittagina obyektini tomosha qilib qaytishni xohlamaydi. Shunday ekan, tarixiy obidalar joylashgan manzillarda sayyohlar e'tiborini tortishi mumkin bo'lgan rang-barang jihatlariga ham e'tibor qaratishimiz zarur.

Aslida har bir qishloqda uzoq o'tmishga oid obidalar ko'plab topiladi, qaysilaridir o'rganilmay turibdi, ba'zilari esa xaroba holda. Agar ularning barchasida ziyorat uchun yetarli sharoitlar hozirlasak, tashrif buyuruvchilar soni ham ancha ko'payib qoladi.

Yurtimizning boshqa hududlari kabi Qamashi tumani ham me'moriy yodgorliklarga boy. E'tiborlisi, hududda ichki sayyohlikni rivojlantirish maqsadida mazkur maskanlarda ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Xususan, Berdoli mahallasida Bibi Mushkul ona ziyoratgohi joylashgan bo'lib, u ham ancha yillardan buyon qarovsiz qolib kelayotgandi. Aholi murojaatlari, deputatlar aralashuvi bilan respublika budjetining madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilishga ajratilgan mablag'i hisobidan obida ta'mirlandi. Kirish qismi yangilandi, yo'laklarga sovuqqa, zax va sho'rga chidamli plitkalar yotqizildi, masjid yuzasiga milliy me'morchilik uslubidagi g'ishtlar qoplandi, ziyoratchilar uchun ayvon tiklandi. Restavratsiya ishlarini "Meros" MCHJ bunyodkorlari olib borishdi.

Rivoyatlarga ko'ra, bu yerda dafn etilgani aytilgan ayol - Bibi Musallam XII asr oxiri va XIII asr boshlarida yashagan. Keyinchalik u xalq tilida Bibi mushkul ona deb atab ketilgan. Aslida bu bid'at amal, ya'ni dinimizda vafot etganlardan tiriklarning ko'mak so'rashi mumkin emas, Allohga iltijo qilinadi. Demak, tarixchilar, ulamolar shu masalani ham odamlarga to'g'ri tushuntirib, 7-8 asr avval qurilgan yodgorlik bo'yicha tadqiqot olib borsalar, nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatining "Langar ota" ziyoratgohi qadimiy maskan ekani haqiqat, buni bu yerdagi obidalar, asrlar davomida saqlanib, bizgacha yetib kelgan Qur'oni Karim, osori atiqalar ham tasdiqlaydi. Qolaversa, maqbaraning ichkarisida saqlanib kelayotgan bitiktoshlar hech bir ziyoratgohda uchramaydi. Ajablanarlisi shundaki, nihoyatda nozik ishlangan 1x2 o'lchamdagi qabrtoshlar qabrlarning bosh uchiga tikka holda o'rnatilgan bo'lib, g'oyat nozik ishlov berilgan.

Bu makonda izlanish va tiklash ishlari boshida turgan fidoyi inson Abdijabbor Abdilaziz o'g'li quyidagicha hikoya qiladi: "Langar ota maqbarasi ichiga dafn etilgan shayxlar qabrlari bosh tomoniga tik o'rnatilgan marmar toshdagi bitiklar biz uchun katta manba. Birinchi qabr shayx Abul Hasan ibn shayx Ilyos ibn shayx Muhammad ibn shayx Xudayqulniki bo'lib, vafot etgan davri hijriy 897 yil, ikkinchi qabr esa Shayx Muhammad Sodiq ibn shayx Abul Hasan ibn shayx Ilyosniki bo'lib, vafoti 952 yilda, uchinchi qabr esa Abul Husayn ibn shayx Muhammad Sodiq Abul Hasan ibn shayx Ilyos ibn shayx Muhammad ibn shayx Xudayqulga tegishli bo'lib, vafoti hijriy 967 yil sanasida qayd etilgan. Shayxlar sharafiga tik holda qo'yilgan benihoya san'atkorona ishlangan 2 metr balandlikdagi qabrtoshlar bu maskanda yotgan azizlarning naqadar nufuzi baland ekanini ko'rsatadi.

O'zbekistonda ziyorat turizmni rivojlantirish buyuk ajdodlarning vorislari – bugungi avlodga, xususan yoshlarimizga tariximiz, madaniyatimiz, xalqimizning bosib o'tgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz va urf-odatlarimiz haqida chuqur ma'lumotlar beribgina qolmay, jonajon O'zbekistonimizning istiqloldan keyingi o'tgan qisqa davrda erishgan yutuqlari, bunyodkorligi, amalga oshirilayotgan islohotlar, uning bosqichlari, strategik yo'nalishlari, mustaqil davlatimizning olib borayotgan ichki va tashqi siyosati, bu boradagi vazifalar xususidagi bilimlarni yanada oshirib borish borasida ham o'ziga xos samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizm sohasini rivojlantirish maqsadida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishlarni amalga oshirish zarur:

- ✓ xududlarda turizmni rivojlantirish maqsadida "Turizm ma'lumotnomasi markazlari"ni tashkil etish;
- ✓ xududlarda, shahar markazida joylashgan obyektlar to'g'risida ma'lumot xaritasi tushirilgan shit (shahardagi barcha binolar, yo'llar, barcha transport yo'nalishlarini tushirish) joriy etish;
- ✓ viloyatning turizm-ekskursiya xaritasi va marshrutlarni ishlab chiqish; - turistlarga eksponat va sovg'alar tarzida mahsulotlar ishlab chiqarishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishda imtiyozli kredit ajratish;
- ✓ yangi turizm turlarini ko'paytirish va shu bilan xorijiy turistlarni qiziqtirish, masalan speleoturizm (g'or turizmi), safari turizmi, agroturizm, ekstremal turizm, gastroturizm, sport turizmi, ilmiy turizm, etnoturizm, tibbiyot turizmi, arxeologik turizm, geologik turizmni rivojlantirish va hokazo;
- ✓ Yakkabog'dagi Amir Temur g'ori va tog' sharsharalariga butunjahon sayyohlarini jalb etish yuzasidan yo'l xaritalarini ishlab chiqish;
- ✓ joylarda "ekoturizm" yo'nalishini rivojlantirish, marshrutlar ishlab chiqish va sayyohlar uchun ommaviy ko'ngilochar tadbirlar o'tkazish (ishlab chiqilgan "Sahrodan – tog' muzliklarigacha" marshrutini amalga oshirish); - turistlar uchun Shahrisabz hududidan tog' chang'i bazasi, osma yo'l, mehmonxonalar va atrof-muhit obodonlashtirilishini tashkil qilish;
- ✓ suv (plyaj, su'niy ko'llar) havzalarining bazasini ko'paytirish; - Konsoy ko'li hamda "Xo'jai pok" ziyoratgohi atrofida kichik sanatoriya qurish; - Qashqadaryo viloyatida "Erkin turizm hududi"ni ochish loyihasini ishlab chiqish;
- ✓ "Langar ota" ziyoratgohi yonida savdo-sotiq shoxobchasi tashkil qilish;
- ✓ Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanida yirik anjumanlar, ko'rgazmalar, yarmarkalar, simpoziumlar, konferensiyalar, festivallar o'tkazish maqsadida zamonaviy Anjumanlar yoki Madaniyat saroyini qurish (yopiq yoki ochiq (yozgi)); - oilaviy korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida, xorij sayyohlariga mahalliy,
- ✓ qishloq hayoti tarzini, urf-odatlarini ko'rsatish;
- ✓ turizm yo'nalishida oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlagan holda, tarixiy-an'anaviy uy mehmonxonalarini tashkil etish;

- ✓ Shahrizabz, Kitob va Yakkabog‘ kabi tog‘oldi tumanlarini doimiy kurort maskaniga aylantirish; - Shahrizabzning Miraki shaharchasi yaqinida dala hovli, villa tipidagi komplekslarni barpo etish (Oqdaryo sohilida);
- ✓ Shahrizabz, Kitob va Yakkabog‘ tumanlaridagi daryolarda rafting, baliq ovlashni tashkillashtirish; - sayyohlarni Qashqadaryo viloyatining yovvoyi tabiati bilan tanishtirish maqsadida davlat qo‘riqxonalariga tashrif uyushtirish masalalari shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4056> [29.12.2020].
2. Папирян, Г. А. Международные экономические отношения: маркетинг в туризме — М. : Финансы и статистика, 2000.- С. 201.
3. Морозов М.А. Дестинация – важнейший элемент туризма / М.А. Морозов, О. Коль. Туризм: практика, проблемы, перспективы. – 1998. – № 1. – С. 9.;
4. Николаев С.С. Стратегия формирования единого туристского пространства в регионе: (На прим. Санкт-Петербурга и Ленингр. обл.): автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / С.-Петербург. гос. ун-т экономики и финансов. — СПб., 2000. — 16 с.
5. Львова Т.В. Влияние качества туристских услуг на экономику дестинации (на примере города-курорта Сочи): автореф. дисс.канд.экон.наук.- Сочи, 2011. - 26 с.
6. Пардаев М.Қ., Атабаев Р., Пардаев Б.Р. Туризмни ривожлантириш имкониятлари //Т.: Фан ва технология, 2007. - 32 б.;
7. Асланова Д.Х. Модели формирования туристского кластера за рубежом // Сервис, 2013. - №1. - С.4-9.
8. Навруз-Зода Б.Н умумий тахрири остида. Туристик худуд рақобатбардошлиги //монография – Бухоро, 2017. 150 б.;
9. Тухлиев И.С ва б. Туризм асослари //Ўқув қўлланма. - Самарқанд, СамИСИ, 2010. 247 б.;
10. Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма: автореф. дисс. док.экон.наук, - 2011. - 38 с.
11. Rakhmatulla Khidirovich Ergashev, Zuhra Jabborova The importance of innovative activity in tourism European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 4, April 2021, ISSN: 2660-5562 <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/663/554>
12. Rakhmatulla Khidirovich Ergashev, Mohigul Khamidova The ways and prospects of increasing the efficiency of ecotourism in Uzbekistan European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 4, April 2021, ISSN: 2660-5562. Rakhmatulla Khidirovich Ergashev, Abror Rakhmatilla ugli Bozorov, Opportunities for the Development of Tourism Infrastructure and Increasing their Efficiency in Kashkadarya Region. [https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/Vol.7\(2021\):AcademicJournalofDigitalEconomicsandStability\(Spain\)](https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/Vol.7(2021):AcademicJournalofDigitalEconomicsandStability(Spain)).
13. Rakhmatulla Xidirovich Ergashev. Prospects for Ecological Tourism Development in Uzbekistan. <https://academicjournal.io> Special Issue on “Innovative Economy: Challenges, Analysis and Prospects for Development Published in Aug-2021,495-503